

NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik




2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *ming birlikda*






Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **24,5** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **5,0** mingtaga yoki **17,1%** ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **8,1** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2023- yilning yanvar - mart oylarida **1,3** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,8 %** ga kam demakdir.

2023- yilning yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yilning yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **24 488** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 272** tani tashkil etdi


2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Namangan shahrida **7 781** tani yoki jamiga nisbatan **31,8 %** ni tashkil etdi.

Yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Namangan viloyatida yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda



2023- yilning yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **10,2** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **3,2** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida **12,9** birlik, Namangan shahrida **11,5** birlik, Uchqo'rg'on tumanida **11,3** birlik, Chortoq tumanida **11,1** birlik, Chust tumanida **10,8** birlik, Pop tumanida **10,2** birlikni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Mingbuloq	12,9
Namangan sh.	11,5
Uchqo'rg'on	11,3
Chortoq	11,1
Chust	10,8
Pop	10,2
Namangan	9,6
Norin	9,3
To'raqo'rg'on	8,7
Yangiqo'rg'on	8,6
Uychi	8,6
Kosonsoy	8,2

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori ko'rsatkich

Mingbuloq tumani
– 12,9 birlik.

o'rtacha ko'rsatkich

Pop tumani
– 10,2 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Kosonsoy tumani
– 8,2 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida **12,9** birlik, Namangan shahrida **11,5** birlik, Uchqo'rg'on tumanida **11,3** birlik, Chortoq tumanida **11,1** birlik, Chust tumanida **10,8** birlik, Pop tumanida **10,2** birlik kuzatildi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Mingbuloq tumani
12,9

Namangan shahri
11,5

Uchqo'rg'on tumani
11,3

Chortoq tumani
11,1

Chust tumani
10,8

Pop tumani
10,2

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- yil yanvar-mart		2023- yil yanvar-mart
38	Mingbuloq	109
82	Kosonsoy	57
64	Namangan	54
99	Norin	70
64	Pop	100
84	To'raqo'rg'on	78
92	Uychi	94
115	Uchqo'rg'on	109
102	Chortoq	96
127	Chust	73
99	Yangiqo'rg'on	88
413	Namangan sh.	344

2023- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Namangan shahri – **27,0 %**, Uchqo'rg'on tumani – **8,6 %**, Mingbuloq tumani – **8,6 %**, Pop tumani – **7,9 %**, Chortoq tumani – **7,5 %**, Uychi tumani – **7,4 %**, Yangiqo'rg'on tumani – **6,9 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **511** ta, sanoatda **246** ta hamda Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **138** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning shahar va tumanlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahrida **344** ta, Mingbuloq va Uchqo'rg'on tumanlarida **109** tadan, Pop tumanida **100** ta, Chortoq tumanida **96** ta, Uychi tumanida **94** ta, Yangiqo'rg'on tumanida **88** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-2023 yillarning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023 yillarning yanvar-mart oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023 yillarning yanvar-mart oylari davomida jami **8 105** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida- **3 155** (yoki **38,9 %**) ta, sanoat sohasida- **2 089** ta (yoki **25,8 %**), xizmatlar sohasida- **1 361** ta (yoki **16,8 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida- **980** ta (yoki **12,1 %**), qurilish sohasida- **520** ta (yoki **6,4 %**) tashkil etilgan.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar. % da




2023- yilning yanvar-mart oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **64,5 %**ni tashkil qilib, 2022- yilga nisbatan **0,2** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.


2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi tashishda **98,4 %**ni, yo'lovchi aylanmasida **96,2 %**ni, qishloq xo'jaligida **95,2 %**ni, savdoda **93,8 %**ni, yuk tashishda **92,3 %**ni, qurilishda **80,8 %**ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati




2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 041,4** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (**956,8** mlrd. so'm), Namangan (**191,6** mlrd. so'm), Uychi (**190,0** mlrd. so'm), Chortoq (**112,4** mlrd. so'm) va To'raqo'rg'on (**98,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Norin tumanida (**27,1** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2023- yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **46,1 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Yangiqo'rg'on hamda Chortoq tumanlari (**100,0 %**), Uychi tumani (**76,9 %**), Pop tumani (**69,3 %**), Norin tumani (**69,0 %**), Namangan tumani (**66,3 %**), Namangan shahri (**58,5 %**) tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi



■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %


2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **871,6** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **67,0** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **106,7** % ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (**293,6** mlrd. so'm), Uychi (**101,5** mlrd. so'm), Chortoq (**73,4** mlrd. so'm), Kosonsoy (**64,0** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**60,2** mlrd. so'm), Namangan (**54,6** mlrd. so'm) hamda Yangiqo'rg'on (**53,3** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **2 199,4** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **70,0 %** ini tashkil etdi. o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **96,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Namangan shahri (**861,9** mlrd. so'm), Chust (**235,6** mlrd. so'm), Namangan (**191,1** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**180,1** mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (**137,6** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**136,2** mlrd. so'm) hamda Kosonsoy (**104,8** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati


2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda




2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **2 455,5** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **95,2 %** ini tashkil etdi. o‘shir sur‘ati 2022- yilga nisbatan **103,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Namangan shahri (**421,9** mlrd. so‘m), Namangan (**271,4** mlrd. so‘m), To‘raqo‘rg‘on (**237,1** mlrd. so‘m), Chust (**229,4** mlrd. so‘m), Uychi (**203,8** mlrd. so‘m), Yangiqo‘rg‘on (**186,7** mlrd. so‘m) hamda Chortoq (**177,6** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **3 355,8** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,8 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **102,6 %** ni tashkil qildi.

2023- yillarning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm

Namangan sh.	1522,2
Chust	288,5
To'raqo'rg'on	202,4
Pop	195,5
Uychi	175,3
Yangiqo'rg'on	156,8
Kosonsoy	156,1
Chortoq	153,2
Namangan	148,9
Norin	132,0
Uchqo'rg'on	128,4
Mingbuloq	96,5


2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (**1 522,2** mlrd. so'm), Chust (**288,5** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**202,4** mlrd. so'm), Pop (**195,5** mlrd. so'm) va Uychi (**175,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023 yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 480,2 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 61,5 % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 101,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Namangan shahri (715,3 mlrd. so'm), Chust (190,3 mlrd. so'm), Uychi (185,8 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on 180,1 mlrd. so'm), Pop (172,3 mlrd. so'm), Chortoq (163,8 mlrd. so'm) va Namangan (159,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.





Ulushi, %da




2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.

Ulushi, %da




2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **52,5** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **40,5 %** ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi




■ hajmi, mln. AQSH dol ■ ulushi, %

2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Norin, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida – **100,0 %**, Pop tumanida – **88,0 %**, Mingbuloq tumaniida – **78,0 %**, Uychi tumanida – **53,9 %**, Namangan tumanida – **50,6 %**, va Namangan shahrida – **45,5 %**, eng past ko'rsatkich Uchqo'rg'on tumanida – **3,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


2018-2023 yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **123,1** million AQSH dollarini yoki jami importning **68,2** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on, Chortoq va Mingbuloq tumanlarida – **100,0** %, Norin tumanida – **99,6** %, Uychi tumanida – **95,4** %, Pop tumanida – **93,7** %, Kosonsoy tumanida – **77,9** %, Namangan tumanida – **77,7** % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2023- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,3 %** ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,1 %**ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2023- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **80,8 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **103,2 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2023- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,4 %** ni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,5 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,2 %** ni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **104,9 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 044** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **338(32,4 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **647(62,0 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **59(5,6%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **40,1 % (419 ta)**, xizmatlar sohasida – **27,3 % (285 ta)**, sanoatda – **19,5 % (204 ta)**, qurilishda – **7,6 % (79 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **5,5 % (57 ta)**ni tashkil etdi.

2023- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (384 ta), Pop (88 ta), To'raqo'rg'on va Chortoq (73 tadan), Norin (64 ta) hamda Uychi (63 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **35,6 %** ni, sanoatda – **34,3 %**ni, xizmatlar sohasida – **32,3 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **93,0 %**ni, xizmatlar sohasida – **63,1 %** ni, qurilishda – **60,7 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **8,9 %** ni, savdoda – **6,2 %** ni, sanoatda – **5,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **50,6 %** ni, sanoatda – **50,0 %** ni, savdoda – **47,3 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **71,9 %** ni, xizmatlar sohasida – **52,3 %** ni, savdoda – **50,4 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **2,8 %** ni, qurilishda – **2,5 %** ni, savdoda – **2,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	36,9	57,5	5,6
Band bo'lganlar soni	14,6	82,2	3,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	33,1	63,9	3,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	28,2	66,4	5,4
Raqobat muhiti	40,1	57,8	2,1

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	41,1	55,6	3,3
Band bo'lganlar soni	18,3	79,1	2,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	35,5	61,4	3,1
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	29,8	64,6	5,6
Raqobat muhiti	40,3	56,7	3,0


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli